

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA LOYIHALARNI
TIJORATLASHTIRISHDA "TADBIRKORLIK UNIVERSITETI"
KONTSEPTSIYASINING O'RNII**

Qo'shoqov Faxriddin Baxtiyorovich

Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ilmiy loyihalarni tijoratlashtirish jarayonida "Tadbirkorlik universiteti" kontseptsiasining ahamiyati yoritilgan. Ushbu kontsepsiya asosiy maqsadi – ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash orqali innovatsion g'oyalarni bozor mexanizmlariga mos ravishda amalga oshirishdan iborat. Shuningdek, tadqiqotda universitetlarda tadbirkorlik muhitini shakllantirish, ilmiy natijalarni iqtisodiy foydaga aylantirish hamda startaplar, biznes-inkubatorlar va texnoparklar faoliyatini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim muassasasi, tijoratlashtirish, tadbirkorlik universiteti, innovatsiya, startap, texnopark, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, innovatsion infratuzilma.*

**РОЛЬ КОНЦЕПЦИИ «УНИВЕРСИТЕТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА» В
КОММЕРЦИАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

Кушаков Фахриддин Бахтиярович

независимый исследователь

Гулистанского государственного университета

Аннотация. *В статье освещается значение концепции «Предпринимательский университет» в процессе коммерциализации научных проектов в высших учебных заведениях. Основная цель данной концепции — обеспечить интеграцию образования, науки и производства для реализации инновационных идей с учётом рыночных механизмов. В исследовании также анализируются вопросы формирования предпринимательской среды в университетах, превращения научных результатов в экономическую выгоду, а также совершенствования деятельности стартапов, бизнес-инкубаторов и технопарков.*

Ключевые слова: *высшее учебное заведение, коммерциализация, предпринимательский университет, инновация, стартап, технопарк, интеграция науки и производства, инновационная инфраструктура.*

THE ROLE OF THE CONCEPT “UNIVERSITY OF ENTREPRENEURSHIP” IN THE COMMERCIALIZATION OF PROJECTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Kushakov Fakhriddin Bakhtiyorovich

independent researcher of Gulistan State University

Abstract. *The article highlights the significance of the “Entrepreneurial University” concept in the process of commercializing scientific projects in higher education institutions. The primary objective of this concept is to ensure the integration of education, science, and production to implement innovative ideas in accordance with market mechanisms. The study also analyzes the formation of an entrepreneurial environment in universities, the transformation of scientific results into economic benefits, and the improvement of startups, business incubators, and technology parks activities.*

Keywords: *higher education institution, commercialization, entrepreneurial university, innovation, startup, technology park, science-production integration, innovation infrastructure.*

Kirish. Oliy ta’lim muassasalari mamlakatlarning innovatsion rivojlanishida va iqtisodiy o’sishda muhim rol o’ynaydi. So’nggi yillarda ilmiy-tadqiqot ishlari va yangi texnologiyalarni yaratish, ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari davlat va iqtisodiyotning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Shu munosabat bilan, oliy ta’lim muassasalarida loyihalarni tijoratlashtirish jarayoni jadal rivojlanmoqda.

“Tadbirkorlik universiteti” kontseptsiyasi mazkur jarayonni samarali tashkil etishning muhim vositasi sifatida qaraladi. U ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o’rtasidagi integratsiyani ta’minlash, innovatsion g’oyalarni bozorda amaliyotga moslashtirish va yangi startap loyihalarni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, kontseptsiya universitetlarda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, ilmiy natijalarni iqtisodiy foydaga aylantirish va texnoparklar hamda biznes-inkubatorlarning faoliyatini samarali tashkil etish kabi masalalarni ham o’z ichiga oladi.

Maqolada “Tadbirkorlik universiteti” kontseptsiyasining oliy ta’lim muassasalarida loyihalarni tijoratlashtirish jarayonidagi ahamiyati, uning asosiy prinsiplari va amaliy yo’nalishlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kontseptsiya doirasida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar va ilmiy ishlarni iqtisodiy foydaga aylantirish mexanizmlari ham ko’rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. Oliy ta'limning iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borgan g'arb iqtisodchi olimlariga: Shumpeter Y., Keyns., Xarrod R. K. K.Makkonel., S.Bryu., F.Agiyon, Gregori N Menkyu. P.Massa., U.Sharp., Samuelson P., V.Nordxaus, R.Dornbush., S.Fisher, G.Lorens, D.Maykl, E.Xansen, G.Mensh., Oppenlander K.N., D. N Kondratev, va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Bu tadqiqotlarda, inson kapitalining iqtisodiy o'sish sifatiga ta'sirini zamonaviy fan nuqtai-nazaridan yondashgan va innovatsion faoliyat ko'lamidan o'sib boruvchi samaradorlikni hisobga olib, o'zida endogen iqtisodiy o'sish nazariyalarini mujassamlashtirgan F.Agiyonning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi.

Oliy ta'lim muassasalari va ularda yaratilgan innovatsion investitsiyalarning va ularning iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri muammolarini tadqiq etishga katta xissa qo'shgan rus olimlaridan: Nuriev R.A., Notkin A.I., Pervuhin S.P., Pogosov I.A., Polyakova T.N., Illarionov A., Shmelev N., Sharaev Yu.V., Kudrov V., Gubanov I.S., Jukov S., Kvashnina N.A., Korniyakov V.T., Kondratev V., Kurenkov Yu., Eliseeva E. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini ta'kidlab o'tish mumkin.

O'z navbatida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq qilishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Jumladan akademiklar R.A.Ubaydullayeva, Q.X.Abduraxmonov va S.S.G'ulomovlar oliy ta'limni rivojlantirish muammolarining turli jihatlarini tadqiq etganlar. Oliy ta'limning milliy iqtisodiyotning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri masalalari so'nggi yillarda tadqiqotchi Sh.G. Akramova tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot usullari. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida loyihalarni tijoratlashtirish jarayonini o'rganish uchun analitik-metodik usul, turli universitetlarda "Tadbirkorlik universiteti" kontseptsiyasi doirasida amalga oshirilgan loyihalarni solishtirish va baholash imkonini beruvchi kompilyativ va solishtirma usullar, anketalar, intervyu va ekspert baholash orqali amaliy natijalarni aniqlashga xizmat qiluvchi empirik usullar, tijoratlashtirilgan loyihalarning moliyaviy va iqtisodiy natijalarini tahlil qilishga imkon beruvchi statistik va matematik usullar, shuningdek, aniq universitetlar va ularning startap yoki innovatsion loyihalari misolida kontsepsiya amaliyotini tahlil qilishga yordam beruvchi keys-stady usuli qo'llanildi. Shu bilan birga, ta'lim, iqtisodiyot, boshqaruv va innovatsion tadqiqotlarni birlashtiruvchi fanlararo yondashuvdan foydalangan holda kompleks tahlil amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Inson taraqqiyotining asosiy maqsadi insonlarning moddiy farovonligini ta'min etib bera oladigan, uzoq davr mobaynida sog'lom turmush tarzi va bunyodkorlik ishlaridan zavqlanib yashay olish imkonini beruvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan qulay yashash muhitini yaratib berishdan iboratdir.

Bugungi kunda inson manfaatlari har narsadan ustun qo'yilayotgan bir paytda, insonlarning turmush farovonligini oshirishda ta'lim sohasi asosiy tashkil etuvchilardan biri sanaladi. Ta'lim sohasi rivojining yuksak darajasi va unga monand ravishda fan va texnikaning yuqori sur'atlarda taraqqiy etishi butun insoniyat tadrijiy taraqqiyoti tarixida ijtimoiy, iqtisodiy va texnik rivojlanishning muhim omili bo'lib kelganligi bugungi kunda hech kimga sir emas, albatta. Statistik malumotlarning ko'rsatishicha qashshoqlik ko'p jihatdan ta'lim darajasiga bog'liq ekan. Bu birinchi navbatda, kambag'al mamlakatlarning ta'lim sohasini qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish uchun etarlicha moliyaviy mablag'larga ega emasligi bilan izohlansa, boshqa bir tomondan esa ta'lim sohasining rivojlanish darajasi mamlakatning milliy iqtisodiyot ko'lamida yuqori mehnat unumdorligini, pirovardida esa iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajasini ta'minlay olish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Mamlakatning innovatsion taraqqiyotni ta'minlay olishga bo'lgan layoqati raqobatbardoshlikning muhim omillaridan biriga aylangan globallashuv sharoitida ta'lim sohasi taraqqiyotining yuqori darajasi endilikda mamlakatning "kiborlar jamiyati"ga tegishlilikni bildiruvchi bir o'ziga xos tavsif emas, balki kuchli raqobat va chuqurlashib borayotgan globallashuv sharoitida yashab qolish, iqtisodiy va pirovardida esa siyosiy mustaqillikni ta'minlashning hal qiluvchi omiliga aylandi. Savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar ishlab chiqarishni yanada taraqqiy ettirish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida etarlicha katta imkoniyatlarga ega bo'lishini bugungi hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bunday mamlakatlarda ishsizlik darajasining past bo'lishi va ish izlash maqsadida mehnatga layoqatli aholi emigratsiyasining past bo'lishi odatiy holdir. Alohida shaxs nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, ma'lumotga ega bo'lgan shaxsning ma'lumotga ega bo'lmagan shaxsga nisbatan ish topishi va o'ziga xos tarzda ish haqi tarzida daromad topishi bir muncha oson. Har qanday mamlakatda ham savodxonlik darajasi past bo'lgan aholi o'rtasida ishsizlik darajasi yuqori ko'rsatkichni tashkil etadi. Ta'lim sohasining taraqqiyotiga aholining sog'lomlilik darajasi va umr ko'rish davomiyligi ko'rsatkichlari ham to'g'ridan – to'g'ri bog'liqdir. Savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan aholi o'z sog'lig'iga nisbatan befarq munosabatda bo'lmaydi, kasallikni vaqtida oldini olish choralari ko'radi, ko'pincha sog'lom turmush tarziga amal qiladi, kasalliklarni farqlay oladi, o'z-o'ziga birinchi tibbiy yordam ko'rsata olgan holda malakali tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasa va mutaxassislariga murojaat qiladi. Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli trendli tahlillari yuqorida tilga olib o'tilgan ko'rsatkichlarning ta'lim darajasiga uzviy bog'liqligini ko'rsatmoqda. Tahlillardan yana shu narsa ko'rinadiki, uzoq muddatli trendda ta'lim darajasi past bo'lgan birorta ham boy mamlakat mavjud emas. Ayni chog'da qisqa va o'rta muddatli vaqt oraliqlari boshqacha manazara ham namoyon etishi mumkin. O'tgan asrlarda mustamlakalar va bosqinchilik

urushlari evaziga mamlakatlar bir muncha vaqt boy mamlakatlar qatoridan o'rin egallab kelishgan. Bugungi kunda ham ayrim holatlarda yuqori likvidli va narxi jahon bozorida o'sib borayotgan tabiiy resurslarga ega mamlakatlar boy mamlakatlar qatoridan joy olishlari mumkinligini ham istisno etish fikridan yiroqmiz Ammo, shuni qayta –qayta takrorlab o'tishimiz joizki, tobora chuqurlashib borayotgan globallashuv va shiddatli tus olayotgan xalqaror raqobat sharoitida xom ashyo resurslariga asoslangan boylik, agar u aholi savodxonlik darajasini muttasil tarzda o'stirib borish va olingan bilim, egallangan tajriba va ko'nikmalarni iqtisodiyot sohalariga samarali transformatsiya qilish bilan qo'llab –quvvatlanmas ekan u albatta uzoq muddatga dosh bera olmaydi, mamlakatning jahon xo'jaligidagi o'rni zaiflashib boraveradi.

Insonning aqliy, ma'naviy – axloqiy, jismoniy ehtiyojlarini shakllantirish va ularning to'la qonli tarzda qondirilishini ta'minlashda ta'lim sohasining o'rnini aniqlashtirar ekanmiz, ta'limni uch jihat, ya'ni shaxs, davlat va jamiyat nuqtai nazaridan qarab chiqishimiz maqsadga muvofiq ko'riladi.


Alohida shaxs nuqtai nazaridan yondashilganda, ta'lim – bu insonning hayota to'la qonli tarzda namoyon eta olishi, unga yaratgan tomonidan in'om etilgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarni ro'yobga chiqara bilishi hamdir. Savodi etarlicha yuqori bo'lgan inson ma'naviy jihatdan boy bo'ladi, uning hayotida moddiy ne'matlar qanchalik muhim o'rin tutsa, ma'naviy ne'matlarda undanda ustun mavqega ega bo'ladi. Ta'lim insonning o'z ma'naviy ehtiyojlarini bosqichma –bosqich qondira borish imkonini bergani holda, uning hayotiga o'zgacha mazmun va ma'no beradi, uni barkamollikka etaklaydi.

Davlat darajasida ta'limga yondashar ekanmiz, bugungi kunda “bilimlar iqtisodiyoti” tushunchasi butun dunyo iqtisodchilari, etakchi siyosatchilari, biznes olamining mashhur vakillarining tilidan tushmayotgan bir paytda, ta'lim sohasining milliy xo'jalikning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlashdagi ahamiyatiga ortiqcha urg'u berib o'tirishning hojati yo'q. Mamlakat aholisining yuqori savodxonlik darajasi bosqichma- bosqich jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanishi va yuksalishiga, mamlakatda demokratik institutlarning faol rivojlanishiga, fuqarolarning davlat va jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarini anglab etishlariga zamin yaratib beradi.

Ta'limga jamiyat nuqtai nazaridan yondashar ekanmiz, eng avvalo shuni ta'kidlashimiz lozimki, u eng avvalo umuminsoniy, umummilliy qadriyatlarni rivojlantirishga, insoniyat tsivilizatsiyasining taraqqiy etishiga qaratilgan bo'lishi lozim, aks holda bunday jamiyat o'z-o'zini tanazzulga etaklovchi jamiyat bo'lib qolaveradi. Faqatgina bilimli va ma'naviy jihatdan boy insonlarga, muammolarni urushlar orqali emas, balki tinch yo'l bilan hal eta oladigan jamiyatni barpo eta oladilar. Haqiqatda bilimli va tarbiyasi yuksak insonlar zo'ravonlik, terrorizm va kuch ishlatishning har qanday ko'rinishlarini qoralaydilar va

bunga tish tirnoqlari bilan qarshi turadilar. Bugungi kunda turli xil umumbashariy muammolar chuqur ildiz otayotgan va insoniyat hayotiga jiddiy xavf solayotgan bir paytda, bilimli va ma'naviy qiyofasi yuksak bo'lgan insonlarga bu muammolarni hal etishni o'z shaxsiy muammo va manfaatlaridan ham ustun qo'yadilar.

Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmunidan va uning dolzarbligidan kelib chiqib, uni quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohasining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir; ikkinchidan, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab, inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi; Uchinchidan, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi; to'rtinchidan, fan jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli, U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi.



1-rasm. Universitetlarning 3 ta asosiy shakli

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi, taraqqiyotning 16 foizi - moddiy-texnik bazaga, 20 foizi – axborot resurslariga, 64 foizi - inson omiliga bog'liq. Bu uchala omil bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiyaning moddiy-texnik bazasi, mavjud resurslaridan, imkoniyatlaridan oqilona

foydalanish inson mafaatiga xizmat qiladi va uning ratsional rivojlanishni belgilab beradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng katta muammo-bu mehnat bozoriga chiqarilayotgan yosh mutaxassislarning kompetentligi talab darajasida emas. Aynan shu maqsadda, ya’ni tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarning kompetentligini oshirish, fan –ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasida o’zaro bog‘liqlikni ta’minlash borasida bizning fikrimizcha “tadbirkorlik universiteti” g’oyasini amaliyotga izchil joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunday universitetning asosiy vazifasi – oliy ta’lim muassasasida yaratilgan innovatsiyalar iste’molchilarining rivojlanishiga imkon beruvchi innovatsiyalarni shakllantirish uchun investitsiyalar jalb qilinishini ta’min etuvchi o’sish nuqtalarini barpo etish va va mehnat bozori uchun raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Amerikalik tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, tadbirkorlik universiteti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- oliy ta’lim muassasasi tadbirkorlik tashkiloti sifatida o’zining tadbirkorlik xulq-atvorini namoyon etishi lozim;

- oliy ta’lim muassasasining o’qituvchilari, talabalari va xodimlari tadbirkor bo’lishlari lozim;

- universitet o’zi joylashgan hudud bilan o’zaro uyg’unlikda rivojlanishi zarur.

Aynan “tadbirkorlik universiteti” g’oyasini amaliyotga izchil joriy etilganliklari bois, mashhur Garvard, Stenford, Texas, Kolumbiya universitetlarining yillik budjetlari bugungi kunda ba’zi bir mamlakatlarning yillik YaIMidan ham ko’proqni tashkil etadi.

Bugungi kunda iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy savodxonlik masalalari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Agar biz mamlakatimizni yaqin yillar ichida dunyoning taraqqiy etgan davlatlari qatorida ko’rishni istar ekanmiz, eng avvalo yuqorida tilga olib o’tganimizdek, oliy ta’lim muassasalarida “tadbirkorlik universiteti” g’oyasini izchil joriy etishimiz, oliy ta’lim muassasasi-korxona va davlat uchligining o’zaro hamkorligini ta’minlash orqali universitet va institutlarning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilashimiz asnosida bitiruvchi yoshlarimizning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishimiz talab etiladi. Bugungi kunda universitetlarning 3 ta asosiy shakllarini ajratadilar (1-rasm).

Gumboldt universiteti 1810 yilda Berlinda ochilgan. Uning mafkurasi faylasuf Shleermaxerning qarashlariga asoslanadi, u shunday degan edi: “Universitetning vazifasi maktab va kollejlarda bo’lgani kabi, umumiy tan olingan va amaliy bilimlarni yetkazish emas, balki qanday qilib bu bilimlar olinishini o’rgatishdir; talabalarning ilmiy izlanishlarga qiziqishini uyg’otish va ularning barcha fikrlarida ilm-fanning asosiy qonunlarini inobatga

olishlariga yordam berish. Gumbold universiteti - bu tadqiqot, ta'lim va bepul o'qitish g'oyasi".

Ilg'or tadqiqotlari va kashfiyotlari bilan yangi institutlar ilm-fan va jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga moslashishni istamagan universitetlarning eskirgan modeli uchun jiddiy raqobatchilarga aylandi. Universitetlarning rivojlanishida yangi IT- kompaniyalar va ularda yuqori texnologiyali startaplarning paydo bo'lishi, ilmiy izlanishlar va bitiruvchilar uchun yangi ish joylari yaratilishi bo'ldi. Universitetlar va davlat ishsizlik muammosini kamaytiradigan, iqtisodiy rivojlanish va innovatsion salohiyatni oshiradigan texnologik klasterlarni yaratishga intilmoqda. Ko'pincha bunday kompaniyalar bitiruvchilar va talabalarning o'zlari tomonidan yaratiladi. Shu bilan birga, universitetlar va ishlab chiqarish kompaniyalari o'rtasida korporativ buyurtmalar va ishlanmalarning bir qismini ta'minlaydigan hamkorlik mashhurlik kasb etmoqda.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Tadbirkorlik universiteti" kontsepsiyasi oliy ta'lim tizimida ilmiy faoliyat natijalarini iqtisodiy qiymatga ega innovatsion mahsulotga aylantirishning eng samarali mexanizmlaridan biridir. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni oshiradi, balki yosh tadqiqotchilar va talabalar o'rtasida startap madaniyatini shakllantiradi, innovatsion loyihalarni real bozorga olib chiqish uchun zarur sharoit yaratadi. "Tadbirkorlik universiteti" modeli doirasida universitetlar ta'lim, ilm-fan va biznes o'rtasidagi uchrashuv hamkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, patent va litsenziyalash tizimini kuchaytirish, inkubatsiya va akseleratsiya markazlari faoliyatini kengaytirish orqali iqtisodiy rivojlanishga bevosita hissa qo'shadi. Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida tijoratlashtirish jarayonini boshqaruvchi alohida "Innovatsiyalar va tadbirkorlik markazlari"ni tashkil etish zarur; ikkinchidan, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi amaliy kurslarni joriy etish lozim; uchinchidan, ilmiy natijalarni patentlash, litsenziyalash va startap shaklida tijoratlashtirishni qo'llab-quvvatlaydigan davlat-grant dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir; to'rtinchidan, universitetlar o'rtasida xalqaro innovatsion tarmoq hamkorligini yo'lga qo'yish orqali tajriba almashinuvini rag'batlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvoxidov, A., and S. Kamilova. "Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar." *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* 1.4 (2023): 12-21.

2. Abduvoxidov, A., and S. Kamilova. "Inson kapitalining raqamli rivojlanishini baholash." *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil* 1 (2023): 2.

3. Зунтова, И. С., and А. С. Трошин. "Инструменты стимулирования инновационной активности студенческого технологического предпринимательства." *Beneficium* 4 (45) (2022): 11-17.